



QALBLARGA O'Y SOLUVCHI MUNGLI ASAR (XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "MUNGLI KO'ZLAR" ASARI ASOSIDA)

Abdurasulova Muxlisa

*Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sevimli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Mungli Ko'zlar" asari o'ziga xos xususiyatlari va asar voqealar rivoji tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xudoyberdi To'xtaboyev, "Mungli Ko'zlar", ota-ona, muhit, ruhiyat, jamiyat, boylik, tarbiya, insoniylik, kibr, oila, farzand, fojea.

Ota-ona yosh avlodni tarbiyalovchi, eng asosiysi, insonga hayot bag'ishlovchi, uning kelajakdagi xatolari, yutuqlari va kamchiliklariga javobgar shaxsdir. Inson dunyoga kelar ekan, ota-onasiga, oiladagi shaxslarga nisbatan taqlid qilgan holda ulg'ayadi. Inson kelajakda qanday martabalarga va yutuqlarga erishishi aynan shu tarbiya va ota-onaga bog'liqdir. Ota-onaga farzandining kamolini, baxtini ko'rishdan o'zga ne'mat kerak emas. Shu jumladan farzandga ham ota-onasidanda tabarruk zot yo'qdek go'yo. Ota-ona farzandining yoshligida qanchalik mehri ko'rsatsalar, qarigan chog'ida farzandlari ular uchun e'tibor, mehr-muhabbat ko'rsatadilar. Ushbu asarda Xudoyberdi To'xtaboyev ham oila atalmish go'shani yoritib berishga urunadi. Har bir oilada bo'ladigan baxtli onlar, ziddiyatlar, kelishmovchiliklarni qalam bilan ifodalash bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo yozuvchi kitobxonni zeriktirmagan holda mahorat bilan ifodalashga musharraf bo'ladi. Shu sababli har bir kitobxon bu asarni qayta-qayta o'qishdan charchamaydi.

O'smirlik davri bu inson va jamiyat xulq atvoring ko'zgidagi aksi desak, notog'ri bo'lmaydi. Chunki bolalar turli vaziyatlarda turli insonlar bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, yosh avlodni hissiy va aqliy rivojlanishiga ijtimoiy muhit, jamoaning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Inson ko'nglidan o'tayotgan ichki kechinmalar uning yuzida emotsiyalar bilan namoyon bo'lishini Akbar isimli qahramonimiz qiyofasida bilib olsak bo'ladi. Chunki asarlar o'z-o'zidan yaralmaydi, ma'lum bir voqea-hodisadan ta'sirlangan ijodkor kitobxoniga qiziqarli va ravon so'zlash orqali kitobxonlarga taqdim qilinadi.

Hech birimizga sir emaski, boy oilada dunyoga kelgan bolalar kibrli va baxtdan sarmas. Go'yoki osmon qo'lidadek, o'zlarini puch hayollar bilan ovutib yuradi.



“Mungli Ko'zlar” romanida ham shu g‘oya bazi bir qahramonlarimiz orqali namoyon qilingan. Bu asar qahramonlari hisoblanmish Said va Yoqutxonning farzandlari o‘ziga to‘q oilada katta bo‘lgan, hech bir qiyinchilik ko‘rmagan bolalar bo‘lib, ularning oilasi boshiga tushgan fojealarni ustaomonlik bilan tasvirlab bergan.

O‘ziga to‘q oilada katta bo‘lgan, ota-onasining juda obroli, kimgadir iltimos qilsa, hech qachon gapi yerda qolmas insonlar ekanini bilgan Zafar hattoki o‘zidan yaxshiroq o‘qiydigan sinfdoshlariga g‘arazli niyyatda bo‘lib, ularga hasad qilishini va hattoki, muallimasiga sovg‘alar orqali baholarini tog‘irlashga \harakat qiladigan bola edi. Asarning har bir qahramoni o‘zining murakkab xarakteri orqali kitobxonning yuragidan joy oladi. Oilaning kenja o‘g‘li Zufar ham boylikka ro‘jo qo‘ygan tanti o‘g‘il edi. Oilasining mulki tortib olinganiga chiday olmay, uni qaytarishga tushib kichik bir xato tufayli avtohalokat yuz berib vafot etadi.

Akbar esa oiladagi yagona sog‘lom muhitli bola edi, ammo u nogiron, uning imkoniyatlari cheklangan, bakli shu sababli ham kitoblar o‘qib bilim olishga tashna edi. U o‘zining badiiy qahramonlari bilan oilasini, ota onasini solishtirar bu xulosalar uning yuragini ezib boraveradi. O‘zining badiiy olamidani chiqishni xohlama, o‘z oilasi va turmush tarzi ham huddi shu olamdagidek bo‘lishini istardi. Otasining poraxo‘r, onasi esa xaridorlarni ishonchini suiiste'mol qiluvchi chayqovchi ekani unga nihoyatda ozor berar, ba‘zida ular topgan harom pul evaziga kelgan oziq-ovqatlarni yeyishdan bosh tortardi. Ularning bu ishlari bilan kuni kelib, jazoga tortilib, ayrilib qolishdan qo‘rqib yashaydi. Akbar o‘zing muallimi kabi ota-onasi ham halol yol bilan pul topishini qanchalar istashini tasavvur etish qiyin. Muallimi Otayullo Isayevich uyida gul tuvaklari yasar, bu ishga Akbar ham yordam berib, halol mexnatning zavqini his qilib ko‘radi ammo uning ota-onasi muallimi bilan aloqasini majburiy uzib qo‘yadilar, o‘ylaydiki, o‘g‘lining fikrlarini Otayullo Isayevich buzmoqda. Shu kabi o‘ylar otasining yuragini ezadi va chora sifatida Otayullo Isayevichni qamatib yuboradi. Bu hukm qanchalik tog‘ri?!

Vaqlar o‘tib birgina shu muallim o‘zining eng sodiq deb yurgan, boy vaqtlarida har on ko‘makka shay turgan kishilari, Qomondon va Qozi xolalar qilmagan muruvvatlar ko‘rsatadi. O‘zing boshiga tashvish tushgan paytida do‘stim deya dod solgan insonlar o‘zini panaga oldi, panaga olgani yetmaganday, bor mulkini ham taladi.

Ushbu ko‘rguliklar boshlanishining sababi Akbarning ota-onasiga tog‘ri yo‘l ko‘rsatmoqchi bo‘lganligi edi. U prokuroturaga xat bilan murojaat qiladi. Shunday yozadi: “Zinhor ota-onamni qamab qo‘ymang, faqatgina ularga tog‘ri yo‘l



ko‘rsating” , - deya so‘raydi, ammo falakning gardishi bilan charx teskari aylanib, otasi va onasi qamoqqa olinadi .Onasi esa buni ko‘tara olmay, qamoqxonada vafot etadi. Otasi esa uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etiladi. Oilada yuz bergan keskin hodisalar bolalar ruhiyatiga keskin va salbiy ta‘sir qiladi. Hamma bo‘lgan ishlarga o‘zini aybdor deya ukasining ham o‘limiga asosiy sababchi deya vijdon azobida yonib ado bo‘lgan Akbar o‘zini hashamatli uyi bilan birga yoqib yuboradi, yagona singlisi Nigora ham og‘ir kasallik bilan betob bo‘lib qoladi. Endi oilaning boshchisi Zafar barcha mas‘uliyat uning bo‘ynida.

Bir oilaning shunday dahshatli tarzda parokanda bo‘lishi, hech bir kimsani e‘tibordan chetta qoldirmaydi. Fojea ustiga fojea, bu paytda bolalarga muallim va ammasi g‘amxo‘rlik qiladi. Bu voqealar zafarga ham yomon tasir qildi. U oldinlari boy, tanti bola bo‘lsa-da hunar o‘rgandi, o‘zgarishga qaror qildi. Otayullo muallimnikida yashar ekan, xotirjamlikni, ammasinikida esa halol mehnat qilish zavqini his qilgan holda yashadi. Ammo nohaq bo‘lsa ham uni axloq tuzatish mahkamasiga yuboradilar.

U yosh bo‘lishiga qaramasdan, turli xil insonlarning qismatiga guvoh bo‘ldi. Uning dunyoqarashi butunlay o‘zgarib, endi sog‘lom fikrli insonga aylana boshladi. Lekin uning vujudi ota-onasining qamalishiga sababchi deya bilgan boylarni ta‘zirini bermagani uchun o‘zini aybdor deya his qilar edi.

Zafar bu parokandalikka asos bo‘lgan ota-onasini yo‘ldan urgan deya shaharning ikki boy uyini yoqib yuboradi va o‘z aybini bo‘yniga olib mahkamaga boradi. Uni aqlan nosog‘lom deb ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yuboradilar, u yerda ham ko‘p kulfatlarga duchor bo‘ladi. Zafarning ota-onasi davlatmand bo‘lgan vaqtda do‘stman degan na otasining yaqinlari, na o‘zining o‘rtoqlari birortasi ham qolmaydi, aksincha, Otayullo muallimdan muruvvat ko‘radi, ammasining mexribonchiligi uchun o‘zing suyangan tog‘i borligidan mamnun bo‘ladi.

Zafar asar yakunida shunday xulosaga keladi “Bu yerdan eson-omon chiqsam, sen orzu qilgandek, halol yashayman, eshityapsanmi akajon, halol yashayman. Bu gapni ,men senga, mana, yig‘lab aytyapman. Haromxo‘rlikka qarshi kurashaman, ehtimol, orzum ushalib prokuror bo‘larman. Lekin kurashaman, qattiq kurashaman...”.

Toxtaboyev X. Mungli ko‘zlar. Tashkent, Yoshlar matbuoti, 2023.301-bet.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xtaboyev X. Mungli ko‘zlar.Toshkent,Yoshlar matbuoti, 2023. 301 b.



2. <https://kitobxon.com/kitob/mungli-ko'zlar>